




Sirdaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2020-yil yanvar-aprel)

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish hajmi,
mlrd. so'm, o'zgarish sur'ati %



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020-yilning yanvar-aprel oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 2432,0 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi 90,0 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 50,6 % ni tashkil etdi.

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 1,0 % ga o'sishi xizmat qildi.

Shuningdek, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning-18,5 % ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida-45,4 % ga hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda-0,5 % ga pasayish kuzatildi.



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2020-yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2,3 mld. soʻnni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,1 % ini tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoat

2020-yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 277,4 mld. soʻnni yoki jami sanoat mahsulotlarining 11,4 % ini tashkil etdi.






Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'inining hajmi 59,4 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 5,2 %), o'rta-yuqori texnologiyali 36,9 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 3,3 %), o'rta-quyi texnologiyali 142,6 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 12,6 %), quyi texnologiyali 895,0 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 78,9 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi





Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-aprel	2020-yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming tonna	12,7	16,5	3,8
Aroq, ming l. 100 % spirit	89,8	69,0	-20,8
Sellyuloza, ming tonna 90 %	588,3	665,4	77,1
Paxta tolasi, ming tonna	16,2	19,9	3,7
Yigirilgan ip, tonna	1138,0	650,4	-487,6
Paxta chigit, ming tonna	32,3	25,5	6,8
Paxta tiviti (lint), ming tonna	1,4	1,7	0,3
Yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa, ming tonna	8,3	13,6	5,3
Etilen polimer qoplar, ming tonna	3,2	5,5	2,3
Issiqlik elektr markazlari (IEM) ishlab chiqargan elektr energiyasi, mln. kVt/s	5819,4	5421,1	-398,3
Bug' va issiqlik suv (issiqlik energiyasi), ming Gkal	65,9	42,9	-23

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti ishlab chiqarish (yirik korxonalar bo'yicha)



Yumshoq bug'doy
va spelta uni

16,5
ming tonna



Aroq

69,0
ming l. 100 % spirit




Sellyuloza

665,4
ming tonna 90 %



Paxta chigit

32,3
ming tonna



Paxta tiviti (lint)

1,7
ming tonna



Yigirilgan ip

650,4
tonna

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti turlarini ishlab chiqarish (yirik korxonalar bo'yicha)



Paxta tolasi



Etilen polimerli qoplar



Soapstok

19,9
ming tonna

5,5
ming tonna

0,6
tonna



Issiqlik elektr markazlari (IEM)
ishlab chiqargan
elektr energiyasi



Bug' va issiq suv
(issiqlik energiyasi)



Yirik shoxli
qoramollar uchun
tayyor ozuqa


5421,1
mln. kVt/s

42,9
ming Gkal

13,6
ming tonna



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1230,4 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 50,6 % ini) tashkil etdi.

2020-yilning yanvar-aprel oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 1,0 % ga oshganligi kuzatildi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 65,4 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,7 % ini) tashkil etdi.



2020-yilning yanvar-aprel oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 0,5 % ga pasayganligi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 738,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019-yilning mos davriga nisbatan 5,0 % ga pasayish kuzatildi, jami sanoatdagagi ulushi esa 56,7 % ni tashkil etdi.



2019-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 60,9 % dan 2020-yilning yanvar-aprel oylarida 57,1 % ga kamayishi kuzatilmoqda.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida sharob va aroq mahsulotlari 14,6 % ni (2019-yil yanvar-aprel oylarida 10,2 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Sirdaryo tumaniga to'g'ri kelib 41,1 % ni, shuningdek, Guliston shahri 13,9 % ni, Mirzaobod tumani 9,5 % ni hamda Boyovut tumanida 8,0 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishning o'sish sur'atida viloyat (91,9 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Yangiyer shahrida (188,5 %) va Mirzaobod (146,1 %), Xovos (109,3 %), Sirdaryo (106,5 %) tumanlarida qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
(2020-yilning yanvar-aprel oylarida)**

	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan, % da
Sirdaryo viloyati	738,1	100,0	91,9
Guliston sh	102,5	13,9	77,2
Shirin sh	6,2	0,8	84,0
Yangiyer sh	40,6	5,5	188,5

tumanlar:

Boyovut t	59,3	8,0	39,5
Guliston t	20,3	2,8	84,7
Mirzaobod t	70,3	9,5	146,1
Oqoltin t	20,5	2,8	91,6
Sardoba t	19,4	2,6	93,6
Sayxunobod t	54,3	7,4	102,3
Sirdaryo t	303,2	41,1	106,5
Xovos t	41,5	5,6	109,3




Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish


Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 315,4 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 13,0 % ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-aprel



2020-yil yanvar-aprel



Xorijiy korxonalar

Boshqa korxonalar




Hududlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va indeksi

	2020-yil yanvar-aprel mldr. so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Sirdaryo viloyati	2432,0	90,0
Guliston sh	207,3	63,5
Shirin sh	1157,6	90,7
Yangiyer sh	107,3	110,2
tumanlar:		
Boyovut t	109,1	69,1
Guliston t	54,3	131,8
Mirzaobod t	110,5	86,5
Oqoltin t	85,4	94,9
Sardoba t	49,9	47,9
Sayxunobod t	87,8	109,1
Sirdaryo t	419,1	80,8
Xovos t	43,7	99,0



Viloyatda ishlab chiqarish hajmida hududlar sanoat mahsulotlarining ulushi, % da




Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulushi Shirin shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 47,6 %), Sirdaryo tumani (17,2 %), Guliston shahri (8,5 %), hamda Mirzaobod tumani (4,6 %) Boyovut tumani (4,5 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Xovos tumani (1,8 %), Sardoba tumani (2,1 %) hamda Guliston tumanlariga (2,2 %) to'g'ri kelmoqda.

**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari va
iste'mol mollari ishlab chiqarish
(2020-yil yanvar-aprel oylari, ming so'mda)**

	Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish	Iste'mol mollari
Sirdaryo viloyati	2901,5	880,6
Guliston sh	2308,7	1140,9
Shirin sh	62229,9	334,5
Yangiyer sh	2501,1	946,5
tumanlar:		
Boyovut t	850,5	462,2
Guliston t	760,0	283,8
Mirzaobod t	1528,5	972,9
Oqoltin t	1658,9	397,4
Sardoba t	764,7	297,5
Sayxunobod t	1148,3	709,2
Sirdaryo t	3302,3	2389,7
Xovos t	461,5	438,4

**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari
ishlab chiqarish va iste'mol mollarining o'sishi
(2019-yil yanvar-aprel oyiga nisbatan, % da)**






**Viloyatdagi hududiy sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan
mahsulotlar hajmi va ulushi
(2020-yil yanvar-aprel oylarida)**

	Mahsulot hajmi (mlrd. so'm)	Jamiga nisbatan ulushi, % da
Sirdaryo viloyati	710,1	29,2
Guliston sh	113,4	54,7
Shirin sh	6,8	0,6
Yangiyer sh	29,0	27,0
tumanlar:		
Boyovut t	21,3	39,2
Guliston t	76,4	69,1
Mirzaobod t	18,7	21,8
Oqoltin t	17,7	35,5
Sardoba t	53,9	61,4
Sayxunobod t	248,8	59,4
Sirdaryo t	24,5	56,2
Xovos t	710,1	29,2



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi, % da

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 733,1 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiyligi ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 30,1 % ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Guliston shahri (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 81,4 %), Sardoba (66,7 %), Sirdaryo (61,6 %), Sayxunobod (61,5 %), hamda Xovos (73,9 %), tumanlarida kuzatildi.

Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Yangiyer shahri (40,6 %), Guliston tumani (39,2 %), Oqoltin tumani (29,6 %) hamda Shirin shahrida (0,6 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

Viloyatda faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini (2020-yil 1-may holatiga ko'ra)

Bugungi kunda Viloyatda 1831 ta sanoat korxonalarini faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 480 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiyligi sonining 26,2 %) Guliston shahriga, 312 tasi (17,0 %) Sirdaryo tumaniga, 173 tasi (9,4 %) Yangiyer shahriga to'g'ri kelmoqda.



2020-yil yanvar-aprel oylarida viloyatda 196 ta yangi sanoat korxonalarini tashkil etildi, ularning 31,6 foizi Oqoltin tumani, Xovos tumani, Sirdaryo tumani va Guliston shahriga to'g'ri keladi.

Sanoat statistikasi bo`limi
Aloqa telefoni: (067) 236-86-23